



Ijtimoiy Emotsional Ta'lim Metodikalarini Joriy Qilish

Jo'rayeva M.Q. Namangan davlat texnika universiteti

"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrası dotsenti

Аннотация: В статье рассматриваются методы внедрения социального и эмоционального обучения (Social and Emotional Learning - SEL) в общеобразовательные школы. Концепция SEL широко применяется в развитых странах, акцентируя внимание на личностном и социальном развитии детей. В этом исследовании изучается применение методик SEL в образовательной системе Узбекистана и их влияние на академическое и социально-эмоциональное развитие учеников.

Ключевые слова: социальное и эмоциональное обучение, общеобразовательные школы, методики SEL, личностное развитие, социальное развитие.

Abstract: The article analyzes the importance and methods of implementing Social and Emotional Learning (SEL) techniques in general secondary schools. The SEL concept is widely implemented in developed countries, focusing on the personal and social development of children. This study examines the application of SEL techniques in the educational system of Uzbekistan and their impact on the academic and socio-emotional development of students.

Keywords: Social and Emotional Learning, general secondary education, SEL techniques, personal development, social development

Annotatsiya: Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijtimoiy emotsional ta'lim (Social and Emotional Learning - SEL) metodikalarini joriy qilishning ahamiyati va usullari tahlil qilinadi. SEL konsepsiyasi dunyoning rivojlangan davlatlarida keng miqyosda joriy etilgan bo'lib, bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga qaratilgan. Ushbu tadqiqotda SEL metodikalarining O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llanilishi va uning o'quvchilarning akademik va ijtimoiy emotsional rivojlanishiga ta'siri o'rganiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy emotsional ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, SEL metodikalari, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish

Kirish

Zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri – har bir o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularda nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki insoniylik, ijtimoiylashuv va psixologik barqarorlikni shakllantirishdir. Bu jarayonda ijtimoiy-emotsional ta'lim (Social and Emotional Learning – SEL) metodikalari katta ahamiyat kasb etadi. SEL konsepsiyasi dunyoning rivojlangan davlatlarida keng miqyosda joriy etilgan bo'lib, unda shaxsiy hamda ijtimoiy qobiliyatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Mazkur metodika umumiy o'rta ta'lim maktablarida bolalarni kelajakdagi ijtimoiy munosabatlar va professional faoliyatga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston maktab ta'lim tizimida SEL metodikalarini kengroq joriy qilish dolzarb masala bo'lib, uning natijasida bolalar faqat akademik jihatdan emas, balki ijtimoiy-emotsional jihatdan ham yetuk shaxslar sifatida shakllanishi mumkin.

SEL metodikasining asosiy tamoyillari, CASEL (Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning beshta asosiy kompetensiyalari mavjud: o'zini anglash (self-awareness), o'zini boshqarish (self-management), ijtimoiy anglash (social awareness), munosabatlarni shakllantirish (relationship skills) va mas'uliyatli qaror qabul qilish (responsible decision-making).¹ Bu kompetensiyalar har bir yoshdagi bolalar uchun muhim bo'lib, ular insonning umumiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarning asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham, o'zini anglash va boshqarishdan tortib, boshqa insonlar bilan ijobiy munosabat o'rnatishgacha bo'lgan bu ko'nikmalarni bolalarga erta yoshdan boshlab o'rgatish zarurdir.

¹ Кожевникова М. Н. Междисциплинарный семинар "социально-эмоциональное обучение в современном образовании" // ЧиО. 2019. №1 (58). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mezhdistsiplinarnyy-seminar-sotsialno-emotsionalnoe-obuchenie-v-sovremennom-obrazovanii> (дата обращения: 26.10.2024).



O'zbekistonning umumiy o'rta ta'lim maktablarida SEL metodikalarini joriy qilish hozirgi kunda dolzarb bo'lib, bu orqali bolalar faqatgina akademik yutuqlarga emas, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham e'tibor qaratilishi mumkin. SEL metodikalarining joriy qilinishi ta'lim tizimida o'quvchilarni zamonaviy jamiyatga moslashishiga yordam beradigan ko'nikmalar bilan qurollantirish imkonini beradi.² Masalan, o'quvchilar o'z hissiyotlarini boshqarish va stress bilan kurashish orqali murakkab vaziyatlarda o'zlarini yo'qotmasdan harakat qilishni o'rganadilar. Shu bilan birga, ular ijtimoiy aloqalarni o'rnatish va mustahkamlash qobiliyatiga ega bo'lib, jamiyatdagi faol ishtirokchiga aylanishadi. Bu esa ularning kelajakda muvaffaqiyatli kasb va shaxsiy hayot kechirishiga xizmat qiladi.

Yurtimizda SEL metodikasini umumiy o'rta ta'lim maktablariga kiritish orqali o'quvchilarimizning shaxsiy va ijtimoiy jihatdan mustahkam shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu boisdan, maktabgacha ta'limdan boshlab, umumiy o'rta ta'lim tizimida SEL dasturlari asosida ishlab chiqilgan maxsus mashg'ulotlar o'tkazilishi zarurdir. Bu mashg'ulotlar bolalarning yoshiga moslashtirilgan bo'lib, unda interfaol usullar, rol o'yinlari, muammolarni yechish texnikalari va guruhlarda ishlash kabi metodlar qo'llaniladi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning faqatgina o'zini anglash va boshqarishiga emas, balki ularning boshqa bolalar bilan birgalikda muvaffaqiyatli ishlash ko'nikmasini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Metodlar va Materiallar

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijtimoiy-emotsional ta'lim (Social and Emotional Learning - SEL) metodikalarini joriy qilishning samaradorligini baholash va ularning o'quvchilarning shaxsiy hamda ijtimoiy rivojlanishiga ta'sirini aniqlashdir. Tadqiqot quyidagi bosqichlardan tashkil topgan: ilmiy adabiyotlarni o'rganish, empirik kuzatishlar, anketalar yordamida ma'lumot yig'ish va olingan natijalarni statistik tahlil qilish. Bu bosqichlar orqali biz O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida SEL metodikalarining o'qituvchilar va o'quvchilar orasida qabul qilinish darajasi hamda uning ta'lim jarayoniga qo'shgan hissasini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ldik.

Tadqiqot ishtirokchilari va ob'ekti

Tadqiqotda umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5–9-sinf o'quvchilari va ularning o'qituvchilari ishtirok etdilar. Tadqiqot ob'ekti sifatida esa Toshkent shahri va bir qator viloyatlardagi maktablar tanlandi. Ishtirokchilar umumiy soni 300 nafardan oshib, ularning 150 nafari SEL metodikalari asosida ta'lim olayotgan eksperimental guruhga va qolgan 150 nafari esa an'anaviy ta'lim jarayonida ishtirok etgan nazorat guruhiga ajratildi. Bu usul orqali SEL metodikalarining ta'lim jarayoniga ta'sirini solishtirish va ularning samaradorligini aniqlash imkoniyati yaratildi.

1. So'rovnoma. O'qituvchilar va o'quvchilar orasida ijtimoiy-emotsional ta'limning ahamiyati va uning amaliyotda qo'llanilish darajasini o'rganish uchun maxsus so'rovnomalar tayyorlandi. So'rovnomalar yordamida o'quvchilar o'zlarini anglash, hissiyotlarni boshqarish, boshqalar bilan ijobiy munosabatlar o'rnatish kabi SEL kompetensiyalarini rivojlantirish darajasini baholadilar.

2. Kuzatish. Ta'lim jarayonida SEL metodikalari qo'llanilgan darslar kuzatildi va o'quvchilarning xulq-atvori, hissiy reaksiyalari va jamoada ishlash qobiliyatlari tahlil qilindi. Kuzatish jarayonida o'qituvchilar va yordamchi tadqiqotchilar bir nechta mezonlar asosida o'quvchilarning SEL kompetensiyalarini rivojlanish darajasini baholadilar.

3. Suhbatlar. Tadqiqot yakunida eksperimental guruhdagi o'quvchilar va ularning o'qituvchilari bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar o'tkazildi. Bu suhbatlar yordamida SEL metodikalarining shaxsiy va akademik rivojlanishga ta'siri haqida kengroq ma'lumot olish mumkin bo'ldi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish

² lex.uz - ПФ-5712-сн 29.04.2019. P'3 <https://lex.uz/uz/docs/4312785?ONDATE=11.05.2022>



Yig'ilgan ma'lumotlar SPSS dasturi yordamida statistik tahlil qilindi. Tahlilda asosiy e'tibor SEL metodikalarining eksperimental guruhdagi o'quvchilarga ta'siriga qaratildi. Bu jarayonda quyidagi indikatorlar baholandi: o'quvchilarning o'z-o'zini anglash darajasi, hissiyotlarni boshqarish qobiliyati, ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish va ularga moslashish darajasi, mas'uliyatli qaror qabul qilish va konfliktlarni samarali hal qilish qobiliyati. Nazorat va eksperimental guruhlarining natijalari o'zaro taqqoslanib, SEL metodikasining samaradorligi haqida xulosa chiqarildi.

SEL metodikalari asosida darslar interfaol va o'yin texnologiyalari orqali tashkil qilindi. Bu jarayonda CASEL tomonidan tavsiya etilgan beshta asosiy kompetensiyalarga³ mos ravishda o'quvchilarning ijtimoiy va emosional ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar o'tkazildi. Masalan, o'z-o'zini anglashni rivojlantirish uchun turli ro'l o'yinlari, hissiyotlarni boshqarishni o'rgatish uchun esa stressni boshqarish texnikalari qo'llanildi.

Ushbu tadqiqot doirasida umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijtimoiy-emotsional ta'lim (Social and Emotional Learning - SEL) metodikalarini joriy qilish natijalari o'rganildi. Eksperimental guruh va nazorat guruhi natijalarini taqqoslash asosida o'quvchilarning SEL dasturi orqali o'z-o'zini anglash, o'zini boshqarish, ijtimoiy anglash, munosabatlarni rivojlantirish va mas'uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Tadqiqot natijalari SEL metodikalarining o'quvchilarda shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

Eksperimental guruhda ishtirok etgan o'quvchilar dasturda ishtirok etmagan nazorat guruhiga nisbatan quyidagi asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli darajada yuqori natijalarga erishdilar:

1. Eksperimental guruh o'quvchilari dastur davomida o'zlarining hissiyotlarini aniqlash va ularni boshqarish qobiliyatlarini sezilarli darajada oshirdilar. O'quvchilar o'zlarining his-tuyg'ularini to'g'ri idrok etish va tanqidiy fikrlash orqali stress holatlarini muvaffaqiyatli boshqarishni o'rgandilar. Bu o'z navbatida o'quvchilarning o'qishga qiziqishini oshirib, ularning dars jarayonidagi ishtirokini faolroq qildi.

2. SEL metodikasining asosiy komponentlaridan biri bo'lgan empatiya, ya'ni boshqalarning hissiyotlarini anglash va ularga moslashish qobiliyati eksperimental guruh o'quvchilarida sezilarli darajada kuchaydi. O'quvchilar jamoaviy ishlarda faol qatnashib, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash va hamkorlikda harakat qilish ko'nikmalarini rivojlantirdilar. Bu esa sinfda ijobiy ijtimoiy muhit yaratishga yordam berdi.

3. Dastur davomida o'quvchilar kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirdilar. Ular tinglash, to'g'ri va ochiq muloqot qilish, mojarolarni konstruktiv ravishda hal qilish kabi qobiliyatlarni o'zlashtirdilar. Bu esa o'z navbatida ularning o'qituvchilar va sinfdoshlari bilan bo'lgan aloqalarini mustahkamladi va ular o'rtasidagi o'zaro hurmatni oshirdi.

4. Eksperimental guruhdagi o'quvchilar SEL dasturi yordamida mas'uliyatli qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantirdilar. Tadqiqot jarayonida o'quvchilar turli holatlarda o'zlarining harakatlari natijalari haqida oldindan fikr yuritish, muqobil variantlarni tahlil qilish va oqilona tanlov qilishni o'rgandilar. Bu esa o'quvchilarning nafaqat maktabda, balki kundalik hayotdagi mas'uliyatli qarorlarini mustaqil qabul qilishlariga yordam berdi.

5. SEL dasturi nafaqat o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga, balki ularning akademik natijalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'quvchilarning o'z-o'ziga ishonchi oshib, ular darslarga faolroq jalb qilingan holda, o'qish jarayonida o'z bilimlarini muvaffaqiyatli namoyon etishga intilishdi. Bu esa ularning darsda yuksak natijalarga erishishlariga zamin yaratdi.

Dastlabki natijalar asosida SEL metodikalarining umumiy o'rta ta'lim tizimiga keng joriy qilinishi o'quvchilarda ijtimoiy va emosional jihatdan barqaror shaxs sifatida shakllanishiga yordam berishi mumkinligi aniqlandi. Ushbu dastur nafaqat o'quvchilarni ruhiy va hissiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, balki ularni jamiyatga foydali shaxs sifatida rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatdi. Natijalarga ko'ra, SEL metodikasining joriy etilishi O'zbekiston ta'lim tizimi uchun dolzarb va strategik ahamiyatga ega ekanligi kuzatildi.

³ O'Brien, M. U., & Resnik, H. (2009). The Illinois social and emotional learning (SEL) standards: Leading the way for school and student success. Illinois Principal Association, 16(7), 2ñ5.



Muhokama

O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijtimoiy-emotsional ta'lim (Social and Emotional Learning - SEL) metodikalarini joriy qilishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ushbu metodikalar nafaqat o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, balki ularning ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli shaxs sifatida shakllanishi uchun ham muhimdir.⁴ SEL dasturlarining joriy qilinishi orqali o'quvchilarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar rivojlanib, ularning shaxsiy va jamiyat oldidagi mas'uliyati kuchayadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, SEL metodikalari yordamida o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini nazorat qilish, stress bilan kurashish, boshqalar bilan hamkorlik qilish va mas'uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshishi, shubhasiz, o'quvchilarni hayotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston ta'lim tizimi o'z oldiga qo'ygan maqsadlardan biri – bu yosh avlodni shaxsiy, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirishdir. Shuning uchun SEL dasturlarini umumiy o'rta ta'lim maktablariga keng joriy qilish o'quvchilarning nafaqat akademik, balki ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ham ta'minlashda muhim o'rin tutadi.⁵ Yurtimiz maktablarida SEL dasturlarini joriy qilish orqali o'quvchilarimizga nafaqat bilim, balki ularda hayotiy ko'nikmalarni ham shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

SEL dasturlari asosida o'tkazilgan darslar o'quvchilarning hissiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, O'zbekistonda ayrim maktablarda SEL dasturlarini sinov tariqasida joriy qilish orqali ijobiy natijalarga erishilganligi qayd etilgan. Ushbu maktablarda o'quvchilarning dars jarayonidagi ishtiroki, o'qishga bo'lgan qiziqishi va o'zaro munosabatlari sezilarli darajada yaxshilangan.

Xulosa

SEL dasturlarining joriy qilinishi o'quvchilarning sinfdagi muhitga moslashishi, darslarda faol ishtirok etishi va o'z tengdoshlari bilan sog'lom munosabatlar o'rnatishida katta ahamiyatga ega. O'qituvchilar SEL metodikalari orqali o'quvchilarga nafaqat bilim beribgina qolmay, balki ularga hayotiy ko'nikmalarni ham o'rgatishga yordam berishlari mumkin. Natijada o'quvchilar o'zaro hurmat, hamkorlik, tinglash va muloqot qilish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni egallab boradilar. Bunday ko'nikmalar ularning nafaqat maktabdagi, balki kelajakdagi hayotida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Умумий ўрта таълим тўғрисидаги низомни тасдиқлаш <https://www.lex.uz/acts/3137130>
2. ПФ-5712-сон 29.04.2019. Ўзбекистон Республикаси
<https://lex.uz/uz/docs/4312785?ONDATE=11.05.2022>
3. Кожевникова М.Н. Социальность подлинная и ложная как проблема философии образования // Социология образования. – 2016. – № 05.
4. Amy L. Green, Stephen Ferrante, Timothy L., Boaz, Krista Kutash, Brooke Wheeldon Social and emotional learning during early adolescence: | Revised: 18 November 2020 | Accepted: 26 November 2020/ DOI: 10.1002/pits.22487
5. Jurazoda M.I. Universal educational actions: a modern approach to the development of students' cognitive abilities. // CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS // CRJP 2024, 5,
6. Wallender, J., Hiebel, A. L., PeQueen, C. V., & Kain, M. A. (2020). Effects of an explicit curriculum on social-emotional competency in elementary and middle school students. The Delta Kappa Gamma Bulletin: International Journal for Professional Educators, 32–43.

⁴ Chay Z. S., Mukhiddinova O. T. STEAMeducation in Uzbekistan: problems and prospects of development. Acta Education, 2024. 1(2), 54–57. <https://doi.org/10.61587/3030-3141-2024-1-2-5-8>

⁵ Wallender, J., Hiebel, A. L., PeQueen, C. V., & Kain, M. A. (2020). Effects of an explicit curriculum on social-emotional competency in elementary and middle school students. The Delta Kappa Gamma Bulletin: International Journal for Professional Educators, 32–43



-
7. Наймушина Лариса Михайловна Социально-эмоциональное обучение как новое направление развития педагогической науки и практики // Педагогика: история, перспективы. 2019. №3.
 8. Шарифбаева Х. Я., Абдурашидова М. Ж. Интегрирование в образование стратегии формирования stem-компетенций: комплексный анализ от начальной до высшей школы // Экономика и социум. 2024. №1